



Fuqarolik jamiyatida qonunchilikning Sotsialogik tahlili

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

I.F.Xayrullayev

TATU Samarqand filiali Kompyuter

Injineriing fakulteti 3-bosqich talabasi:

Telefon raqami: +998992919124

E-mail: islomxayrullayev9aprel@gmail.com

Annotatsiya: Davlat qonunchiligida belgilangan tartibda huquqiy meyorlarga amal qilish, alohida konsepsiyalar ishlab chiqish va ularni fuqarolik jamiyatiga tadbiq etish. Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarish, o'z hududlaridagi ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini hal etish kabi masalalar ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Fuqorolik jamiyati, Sharqda fuqorolik jamiyati, Konsepsiya, Siyosiy huquqlar, Yangi tahrir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashining samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida asos bo'luvchi bir qator hujjatlar qabul qilindi, jumladan quidagilar:

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining belgilanishi.



2018 yil 18 aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, davr talablaridan kelib chiqib, sohaga doir bir qator qonunlarga o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, «Jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi, «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi, «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida»gi, «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi, «Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunlar takomillashtirildi, bu esa ko‘plab masalalarga yechim bo‘lib hizmat qiladi.

2018 yil 4 mayda davlatimiz rahbari “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonini imzoladi. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur huquqiy hujjatda Prezidentimizning bugungi kun va yaqin istiqbolda O‘zbekistondagi fuqarolik jamiyati institutlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim tashabbuslari o‘z aksini topgan.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi loyihasi, shuningdek, ushbu dasturiy hujjat doirasida 2017, 2018 va 2019 yillar bo'yicha davlat dasturlari jamoatchilik muhokamasiga qo'yilib, so'ngra qabul qilingan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – davlat ahamiyatiga molik dolzarb masalalarni kompleks ravishda tahlil qilish, keng jamoatchilik qatlamlari, ekspertlar sharhi, fikr-mulohaza va takliflarini o'rganishdan iborat. Binobarin, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik bunday hujjatlarni tayyorlashda butun O'zbekiston xalqining qiziqishlari to'la inobatga olinishini ta'minlash uchun aholi o'rtasida keng muhokamalar tashkil etish, doimiy ravishda xalq bilan muloqot qilish taqozo etiladi. Bunda, shubhasiz, fuqarolik jamiyati institutlari faol bo'lishi darkor.

Shu o'rinda fuqorolik jamiyating shakllanish tarixiga ham bir e'tibor berishimiz joiz deb topdim, sababi tarix kelajak uchun poydevor bo'lib hizmat qiladi:



Fuqarolik jamiyati – haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning „Siyosat“ asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquklari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi.

Sharqda Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, fe'l-atvor, xatti-harakatlar va qoida me'yorlarning uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Forobiyning „Fozil odamlar shahri“ asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol Fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Forobiy fikriga ko'ra, „Shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi“, jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiyma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi. Bu kabi g'oyalar Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda keng qo'llanilgan.

Uzoq tarixiy rivojlanish natijasida Fuqarolik jamiyatini hozirgi zamonaviy tushunish shakllandi. Unga ko'ra, Fuqarolik jamiyatda mulkchilik shakllarining xilma-xil va teng bo'lishi, mehnat va tadbirkorlikning erkinligiga yo'l qo'yilishi, mafkuraviy xilma-xillik va axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklarining daxlsizligi, rivojlangan o'zini o'zi boshqarish, madaniylashgan huquqiy hokimiyat bo'lishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta'minlanishi muhim hisoblanadi.



O‘zbekistonda Fuqarolik jamiyatini qurish tarixiy an’ana bo‘lsada, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg‘or tajribalari va ko‘p ming yillik milliy an’analarning sintezi sifatida dunyoga kelmoqda. Ya’ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy huquqiy faollik, hurriyat va qat’iy tartib intizom uyg‘unligida Fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda.

Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning majburlov kuchi bilan, balki uning a’zolari bo‘lmish fuqarolarning o‘zlari orqali saqlab turiladigan va qat’iy tartib qaror topgan jamiyatdir. Bunday jamiyat o‘zini o‘zi yuksak darajada tashkil etishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta’siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo‘lishi kerak, chunki davlat – fuqarolik jamiyatning „yollanma xizmatkori“. Zero, u fuqarolar, korxona va muassasalardan olinadigan soliqlar hisobiga mavjud bo‘ladi. Mazkur jamiyat nafaqat o‘zining siyosiy, madaniy hayotini, balki iqtisodiy, ijtimoiy hayotini ham boshqarib turadi. Hamma jamiyatni ham fuqarolik jamiyati deb bo‘lmaydi. Fuqarolik jamiyati ancha yuksak darajadagi ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichidir va bu borada bizning jamiyatimizda bir qator e’tiborga mo’nelik qiladigan jihatlar ham mavjud ya’ni : Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinishidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 4-mart kuni 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmonni imzoladi.

Konsepsiyaning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;
- fuqarolik jamiyati institutlariga ko‘mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;



-davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;

-fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash.

„Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari“ konseptual g'oyaning amaliy ahamiyati shundaki, unda mamlakatimizda demokratik jaraënlarni yanada chuqurlashtirishning vazifalari o'z ifodasini topgan. Ular mustaqillik yillarida bu sohada amalga oshirilgan yangi islohotlar strategiyasining uzviy bir qismi bo'lib, mamlakatimiz taraqqiëtinining bugungi bosqichidagi o'zgarishlar zaruratini o'zida aks ettiradi. Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarish, o'z hududlaridagi ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini hal etish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishdagi faolliklari hozirgidan ko'ra ancha kuchliroq bo'ladi.

Konsepsiyadan tashqari davlatning bir qator qonun hujjatlarida ham fuqorolarning jamiyatdagi bir qator huquqlari ko'rsatib o'tilgan.

Siyosiy huquqlar fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishini ta'minlaydi. Konstitutsiyaning 32-moddasida: “O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi”, - deb belgilangan. Demak, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtiroki, eng avvalo, davlat va jamiyatni boshqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, bu davlat va jamiyat ishlarini boshqarish huquqidir. “Erkin saylov va o'z hoxish-irodasini erkin bildirish prinsiplari, birinchi navbatda har bir shaxsning davlat ho-kimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi .



Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hayotimizning boshqa muhim sohalari va ustuvor yo‘nalishlari qatori faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish, jamoatchilik nazorati institutini yanada rivojlantirishga oid normalar ham kiritilganini ta’kidlash lozim. Bundan ko‘zlangan maqsad, shubhasiz, mamlakatimizda ochiqlik siyosatini davom ettirishdir.

Konstitutsiyamizga ilk marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning XIII bobi «Fuqarolik jamiyati institutlari», deb nomlandi. Yangilangan Konstitutsiya timsolida milliy qonunchiligimizda birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlarining tarkibi ochib berildi. Ushbu institutlar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlandi.

Asosiy qonunimizning 69-moddasiga ko‘ra: «Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi».

Konstitutsiyaning eski matnida «jamoat birlashmalari» tushunchasiga berilgan ta’rif yanada aniqlashtirildi. Bosh qomusimizning 70-moddasi jamoat birlashmalari faoliyatini kafolatlovchi norma bilan to‘ldirildi.

Endilikda ushbu konstitutsiyaviy moddaga binoan: «O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo‘yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi».



Davlat zimmasiga fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq muayyan majburiyatlar yuklandi. Konstitutsiyaning 72-moddasi birinchi bandiga muvofiq: «Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi».

Shu bilan birga, davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashmasligi, demakki davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bir-biridan mustaqil ravishda faoliyat olib borishi kafolatlab qo'yildi. Bundan tashqari, Asosiy qonunda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash masalasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari qatoridan joy oldi. Konstitutsiyaning 115-moddasi oltinchi bandiga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi: fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi. Bir so'z bilan aytganda jamiyatimizning fuqarolik jamiyatiga aylanib borayotganligi zahirida ko'plab islohotlar va bu islohotlarning dasturi amal bo'lib xizmat qilishida davlat hokimiyatining ham alohida o'rniga mavjuddir.

Xulosa. Bularning barchasi, shubhasiz, fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatimizni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish hamda jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki va ta'sirchan rolini oshiradi. Binobarin davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining yanada ochiqqligini ta'minlash, boshqaruv qarorlari qabul



qilinishini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishda aynan fuqarolik jamiyati institutlari beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saitxojayev. X.B. "Sotsiologiya darslik" .Toshkent .-2017 .256 bet.
2. Fozilov .U.E. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning nazariy va huquqiy asoslari" .Toshkent 2016.560 bet.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fuqarolik_jamiyati